

QIYOSIY MORFOLOGIYA VA SINTAKSIS ASOSIDA TARJIMA JARAYONINI OPTIMALLASHTIRISH METODLARI

Rasulova Mubina Sherzodbek qizi

Andijon Davlat Chet Tillari Instituti magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada qiyosiy morfologiya va sintaksis tahlili orqali tarjima jarayonini optimallashtirish masalalari yoritilgan. Tarjima jarayonida morfologik va sintaktik tuzilmalarning farqlarini aniqlash hamda ularni moslashtirish usullari tahlil qilinadi. Ingliz va o'zbek tillari misolida so'z tartibi, fe'l shakllari, egalik qo'shimchalari va bog'lovchi vositalarning tarjimadagi o'rni ko'rsatib o'tiladi. Shuningdek, avtomatik tarjima tizimlari uchun morfosintaktik model yaratish imkoniyatlari haqida fikr yuritiladi.

Annotation: This article explores the issues of optimizing the translation process through comparative morphological and syntactic analysis. It examines methods for identifying and adapting differences in morphological and syntactic structures during translation. Using English and Uzbek as examples, the study highlights the role of word order, verb forms, possessive suffixes, and connecting devices in translation. The article also discusses the possibilities of developing a morphosyntactic model for machine translation systems.

Kalit so'zlar: qiyosiy morfologiya, sintaksis, tarjima jarayoni, optimallashtirish, avtomatik tarjima, morfosintaktik model.

Bugungi globalashuv davrida tarjima amaliyoti, xususan, avtomatik tarjima tizimlari tilshunoslikning dolzarb sohalaridan biri hisoblanadi. Tarjima—bu madaniyatlararo kommunikatsiyani ta'minlovchi muhim jarayon bo'lib, tilshunoslikda uning jarayonlarini chuqur o'rganish katta ahamiyatga ega. Ayniqsa, qiyosiy morfologiya va sintaktik yondashuvlari tarjima sifatini va samaradorligini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Ayniqsa, agglutinative tillar (masalan, o'zbek tili) va analitik tillar (masalan, ingliz tili) o'rtasidagi farqlar tarjima jarayonida murakkablik tug'diradi. Shu bois, qiyosiy morfologiya va sintaksis asosida tarjima jarayonini optimallashtirish metodlarini ishlab chiqish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Qiyosiy morfologiya tarjimadagi o'rni

Qiyosiy morfologiya – bu ikki yoki undan ortiq tillarning morfologik tuzilishini solishtirish va ularning o'ziga xos xususiyatlarni aniqlashga qaratilgan soha. Bu soha so'zlarning grammatik shakllanishini tahlil qilib, tillararo o'xshash va farqli jihatlarni aniqlaydi. Ingliz tilida grammatik ma'no asosan yordamchi so'zlar (to be, will, have va boshqalar) yordamida ifodalanadi, o'zbek tilida esa qo'shimchalar orqali ifodalanadi.

Masalan: I am reading a book.



Men kitob o'qiyapman.

Bu yerda ingliz tilidagi am reading analitik fe'l shakli o'zbek tilida bitta morfologik birlik – o'qiyapman orqali ifodalangan. Shunday qilib, tarjimada morfologik tahlil asosida “bir nechta grammatik birlik – bitta so'z shakli” mosligini aniqlash optimallashtirish imkonini beradi.

Yana bir misol: U kitoblarni olib keldi.

Он принес книжки.

O'zbek tilidaga olib keldi (2 ta mustaqil so'zdan tashkil topgan qo'shma fe'l) so'zini rus tilidagi принес bitta fe'l bilan tarjima qilinadi.

Qiyosiy sintaksisda tillarning gap tuzilishini, frazeologik birikmalar va gap tarkibiy birliklarining o'zaro munosabatlari taqqoslanadi. Bu yondashuv tarjima jarayonida tilshunoslik bilimlari bilan bog'liq bo'lib, ikki til yoki ko'p tillar o'rtasidagi muhim farqlarni aniqlashga imkon beradi. Sintaktik tahlil tarjimada so'z tartibi, gap bo'laklari va bog'lanish turini aniqlashda muhimdir. Ingliz tilida qat'iy so'z tartibi (subject+verb+ object) mavjud bo'lsa, o'zbek tilida so'z tartibi nisbatan erkin (ega+ ikkinchi darajali bo'laklar+kesim) hisoblanadi.

Misol: She bought a new car yesterday.

U kecha yangi mashina sotib oldi.

Bu yerda ingliz tilidagi yesterday (kesimdan keyin) o'zbek tilida kesimdan oldin joylashgan. Avtomatik tarjimada sintaktik tahlil moduli shu farqlarni hisobga olgan holda so'z joylashuvini avtomatik tarzda moslashtirishi kerak.

Tarjima qilinayotgan til va tarjima tilining morfologik va sintaktik strukturalarini qiyosiy tarzda tahlil qilish, tarjimon uchun quyidagi imkoniyatlarni ochadi:

A. Tilning morfologik shakllari va ularning tarjimasi uchun mos alternativlarni aniqlash.

B. Gap tuzilishi va sintaktik konstruksiyalarni to'g'ri tushunish va moslashtirish.

C. Noaniqliklar va tarjima xatolarini oldini olish.

Tarjima jarayonini optimallashtirish metodlari.

Quyidagi metodlar tarjima tizimlarini morfosintaktik asosda takomillashtirish imkonini beradi:

1. Morfologik analiz va generatsiya moduli – so'zning ildizi, qo'shimchalari va grammatik kategoriyalarini aniqlash.

2. Sintaktik daraxt (parse tree) asosida tahlil – har bir gapning sintaktik tuzilmasini tuzish.

3. Qiyosiy moslashtirish algoritmlari – har ikki tilning morfologik va sintaktik birliklarini moslashtirish jadvalini yaratish.

4. Korpus asosida o'rganish – tarjima matnlari korpusidan avtomatik mosliklarni o'rganish.

Masalan, quyidagi inglizcha gap uchun tizim morfosintaktik tahlil asosida o'zbekcha tarjimini shakllantiradi:



Inglizcha: They will have finished the project by Monday.

Morfologik tahlil: modal (will), perfekt (have finished), obyekt (the project), vaqt (by Monday).

O'zbekcha tarjima: Ular dushanbagacha loyihani tugatib bo'lishadi.

Bu jarayonda tizim inglizcha perfekt zamonni o'zbekchadagi tugatib bo'lish konstruksiyasi bilan almashtirgan – bu morfosintaktik optimallashtirishning natijasidir.

Xulosa:

Qiyosiy morfologiya va sintaksis tahlili tarjima jarayonida aniqlik va tabiiylikni ta'minlovchi asosiy omillardandir. Morfosintaktik moslashtirish metodlari nafaqat inson tarjimonlari, balki avtomatik tarjima tizimlari uchun ham samaralidir. Shu yo'nalishda korpus asosida avtomatik morfosintaktik o'rganish metodlarini qo'llash tarjima sifatini sezilarli darajada optimallashtiradi. Tarjima jarayonida tarjimon matnning morfologik va sintaktik strukturasini yaxshi anglashi, uni tarjima tiliga to'g'ri o'girishi va undagi sof ma'noni va stilistik uslublarni to'liq saqlashga harakat qilishi zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Komissarov V.N. Teoriya perevoda (Лингвистические аспекты). – Moskva: Высшая школа 1990.
2. Karimov A. Tilshunoslikda qiyosiy tahlil metodlari. – Toshkent: Fan, 2018.
3. Jurayev B. Avtomatik tarjima tizimlarida morfologik tahlilning o'rni. – “Filologiya masalalari” jurnali, 2022.

